

2023- yil yanvar-may oylari uchun
dastlabki ma'lumot



QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(75) 221-44-28



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryoda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **2 40020,6 ming AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2 41059,1 ming AQSH** dollariga yoki **0,4 %** ga kamaydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **2 40020,6** -0,4 %
(2022- y.: **2 41059,1**)



Saldo

2023- y.: **78857,8**
(2022 y.: **9229,1**)



Eksport

2023- y.: **1 59439,2** +27,4 %
(2022- y.: **1 25144,1**)



Tovarlarni: **157596,4**



Xizmatlar: **1842,8**



Import

2023- y.: **8 0581,4** -30,5 %
(2022- y.: **1 15915,0**)



Tovarlarni: **80028,4**



Xizmatlar: **553,0**






Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.






TSAda eksport hajmi **1 59439,2** ming AQSH dollariga (**27,4 %** ga ko‘paydi) va import hajmi **8 0581,4** ming AQSH dollariga (**30,5 %** ga kamaydi).

Hisobot davrida **7 8857,8** ming AQSH dollari qiymatida aktiv tashqi savdo balansi qayd etildi.




QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

Turkiya	Rossiya Federatsiyasi	XXR	BAA	Qozog‘iston
TSA –54166,3	TSA –36071,5	TSA –30717,3	TSA –21207,1	TSA –15934,7
Eksport:45105,9 Import: 9060,4	Eksport:27463,4 Import:8608,1	Eksport:5989,5 Import:24727,8	Eksport: 21177,4 Import: 29,7	Eksport: 6939,2 Import: 8995,5
 22,6 %	 15,0 %	 12,8 %	 8,8 %	 6,6 %

Pokiston	Polsha	Latviya	Qirg‘iz Respublikasi	Vetnam
TSA – 11463,6	TSA –8917,3	TSA – 5440,7	TSA – 5400,0	TSA – 5199,5
Eksport:10497,4 Import: 966,2	Eksport:8294,5 Import:622,8	Eksport: 4,9 Import: 5435,8	Eksport: 3132,3 Import: 2267,7	Eksport: 5137,2 Import: 62,3
 4,8 %	 3,7 %	 2,3 %	 2,3 %	 2,2 %

Qashqadaryo viloyati jahonning **63** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Turkiyada (**22,6 %**), Rossiya Federatsiyasida (**15,0 %**), XXRda (**12,8 %**), BAAda (**8,8 %**), Qozog‘istonda (**6,6 %**), Pokistonda (**4,8 %**) va Polshada (**3,7 %**) qayd etilgan.

 Shuningdek, qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko‘rish mumkin.

Xususan, Tojikiston, Qirg‘iz Respublikasi va Qozog‘iston kabi qo‘shni davlatlar bilan TSAda so‘nggi yillarda katta o‘zgarishlar kuzatilyapti.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO‘LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)



Turkiya – 54166,3



Rossiya Federatsiyasi – 36071,5



BAA – 30717,3













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo‘yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan **12** ta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Turkiya, Rossiya Federatsiyasi va BAA davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **8** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Turkiya	53277,3	65019,5	54166,3
 <i>Eksport</i>	24704,0	47747,8	45105,9
<i>Import</i>	28573,3	17271,7	9060,4
Rossiya Federatsiyasi	21652,5	30466,2	36071,5
 <i>Eksport</i>	11276,5	18552,1	27463,4
<i>Import</i>	10376,0	11914,1	8608,1
XXR	30709,6	52210,5	30717,3
 <i>Eksport</i>	7070,6	12187,2	5989,5
<i>Import</i>	23639,0	40023,3	24727,8
BAA	755,3	693,0	21207,1
 <i>Eksport</i>	125,5	611,7	21177,4
<i>Import</i>	629,8	81,3	29,7
Qozog'iston	18347,7	10443,6	15934,7
 <i>Eksport</i>	8263,7	2861,4	6939,2
<i>Import</i>	10084,0	7582,2	8995,5
Pokiston	4198,8	4278,4	11463,6
 <i>Eksport</i>	3932,4	4093,6	10497,4
<i>Import</i>	266,4	184,8	966,2
Polsha	1703,4	5831,4	8917,3
 <i>Eksport</i>	1486,0	4684,9	8294,5
<i>Import</i>	217,4	1146,5	622,8
Latviya	803,5	143,6	5440,7
 <i>Eksport</i>	33,4	88,7	4,9
<i>Import</i>	770,1	54,9	5435,8
Qirg'iz Respublikasi	4101,6	6961,2	5400,0
 <i>Eksport</i>	3822,5	4251,6	3132,3
<i>Import</i>	279,1	2709,6	2267,7
Vetnam	0,0	1326,7	5199,5
 <i>Eksport</i>	0,0	1326,6	5137,2
<i>Import</i>	0,0	0,1	62,3

Davlatlar		2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Misr	1475,2	695,5	4908,8
	<i>Eksport</i>	1475,2	695,5	4892,9
	<i>Import</i>	0,0	0,0	15,9
	Hindiston	1056,5	5318,6	4892,7
	<i>Eksport</i>	800,0	2998,4	4017,3
	<i>Import</i>	256,5	2320,2	875,4
	Eron Islom Respublikasi	5548,1	11268,4	4072,2
	<i>Eksport</i>	4020,5	8259,8	3019,0
	<i>Import</i>	1527,6	3008,6	1053,2
	Germaniya	2603,0	8374,2	3805,2
	<i>Eksport</i>	3,6	1019,7	182,6
	<i>Import</i>	2599,4	7354,5	3622,6
	Koreya Respublikasi	1603,6	1831,3	2169,4
	<i>Eksport</i>	3,6	249,6	4,2
	<i>Import</i>	1600,0	1581,7	2165,2
	Litva	336,7	217,3	2465,5
	<i>Eksport</i>	185,2	0,0	0,0
	<i>Import</i>	151,5	217,3	2465,5
	Tojikiston	4305,6	2208,6	2150,1
	<i>Eksport</i>	4039,7	364,3	1854,3
	<i>Import</i>	265,9	1844,3	295,8
	Belarus Respublikasi	622,5	682,8	2114,4
	<i>Eksport</i>	227,3	445,9	995,8
	<i>Import</i>	395,2	236,9	1118,6
	Avg'oniston	8520,4	8758,4	1919,8
	<i>Eksport</i>	8517,1	8616,8	1861,9
	<i>Import</i>	3,3	141,6	57,9
	Italiya	1214,5	2201,5	1781,1
	<i>Eksport</i>	0,0	723,4	475,2
	<i>Import</i>	1214,5	1478,1	1305,9



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	240020,6	99,6	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	10968,3	99,8	4,6
Dehqonobod	8693,1	167,5	3,6
Qamashi	6503,9	70,2	2,7
Qarshi	37445,4	56,1	15,6
Koson	13296,9	46,7	5,6
Kitob	12907,3	48,9	5,4
Mirishkor	6223,1	94,9	2,6
Muborak	2645,3	58,5	1,1
Nishon	35354,5	13,4 m.	14,7
Kasbi	46550,9	179,5	19,4
Ko'kdala	3754,0	-	1,6
Chiroqchi	6046,6	163,5	2,5
Shahrisabz	3817,3	83,6	1,6
Yakkabog'	11340,4	176,9	4,7
Qarshi sh.	31980,6	91,4	13,3
Shahrisabz sh.	2443,5	55,0	1,0
Boshqalar	49,5	30,3	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari




ViLOYAT tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **19,4 %** ulush bilan **46550,9** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **1,0 %** ulush bilan **2443,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, Qashqadaryo viloyatining, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan.

QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **27,5** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **15,3** % ga ko'paygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-may oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **5,3** % ga kamaydi va jami TSA'dagi ulushi **72,5** % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-may oylari holatiga ko'ra, **65944,1** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **44013,3** ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **21930,8** ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



QASHQADARYO VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2023- yil yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

Rossiya

TSA – 36071,5
Eksport – 27463,4
Import – 8608,1



Qozog'iston

TSA – 15934,7
Eksport – 6939,2
Import – 8995,5



Qirg'iz Respublikasi

TSA – 5400,0
Eksport – 3132,3
Import – 2267,7



Belarus Respublikasi

TSA – 2114,4
Eksport – 995,8
Import – 1118,6




Tojikiston

TSA – 2150,1
Eksport – 1854,3
Import – 295,8



Ozarbajjon

TSA – 963,7
Eksport – 855,3
Import – 108,4



Moldova Respublikasi

TSA – 1095,8
Eksport – 1095,8
Import – 0,0



Ukraina


TSA – 425,4
Eksport – 255,0
Import – 170,4




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**54,7 %**), Qozog'iston (**24,2 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**8,2 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



 Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **60215,3** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **39225,4** ming AQSH dollari, import hajmi esa **20989,9** ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksport bop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **155** taga yetdi va ular tomonidan **159439,2** ming AQSH dollari qiymatini va (2022- yilning mos davriga nisbatan **27,4** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-may oylarida ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-may oylari yillar kesimida)

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O‘zgarish sur‘ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	125144,1	159439,2	143,9	127,4	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13187,3	27446,9	86,3	2,1 m.	10,5	17,2
Ichimliklar va tamaki	269,4	307,3	-	114,1	0,2	0,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	2658,9	1827,8	2,4 m.	68,7	2,1	1,1
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	7214,6	21653,1	66,5	3,0 m.	5,8	13,6
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	1015,8	-	89,9 m.	-	0,8	-
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	24,1	68,8	2,8 m.	2,8 m.	-	0,1
Sanoat tovarlari	97949,6	102608,2	175,4	104,8	78,3	64,4
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	1098,8	3404,4	6,2 m.	3,1 m.	0,9	2,1
Turli xil tayyor buyumlar	116,9	7,2	5,6 m.	6,2	0,1	-
Boshqa tovarlar	-	272,7	-	-	-	0,2
Xizmatlar	1608,7	1842,8	45,0	114,6	1,3	1,1


Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,9 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**64,4 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**17,2 %**) va mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar (**13,6 %**) hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga **44013,3** ming AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **46,8 %** ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, BAA, Polsha, Pokiston, Misr va Hindiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **76,2 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Turkiya	47747,8	45105,9	193,3	94,5	1	1
Rossiya Federatsiyasi	18552,1	27463,4	164,5	148,0	2	2
Birlashgan Arab Amirligi	611,7	21177,4	4,9 m.	34,6 m.	15	3
Pokiston	4093,6	10497,4	104,1	2,6 m.	8	4
Polsha	4684,9	8294,5	3,2 m.	177,0	6	5
Qozog'iston	2861,4	6939,2	34,6	2,4 m.	10	6
XXR	12187,2	5989,5	172,4	49,1	3	7
Vetnam	1326,6	5137,2	-	3,9 m.	12	8
Misr	695,5	4892,9	47,1	7,0 m.	14	9
Hindiston	2998,4	4017,3	3,7 m.	134,0	9	10
Qirg'iz Respublikasi	4251,6	3132,3	111,2	73,7	7	11
Eron Islom Respublikasi	8259,8	3019,0	2,1 m.	3,0 m.	5	12
Afg'oniston	8616,8	1861,9	101,2	21,6	4	13
Tojikiston	364,3	1854,3	9,0	5,1 m.	17	14
Marokash	-	1355,3	-	-	-	15
Moldova Respublikasi	1442,6	1095,8	185,9	76,0	11	16
Belarus Respublikasi	445,9	995,8	196,2	2,2 m.	16	17
Ozarbayjon	1126,5	855,3	-	75,9	13	18
Turkmaniston	346,2	727,6	35,9	2,1 m.	18	19
Armaniston	-	694,7	-	-	-	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2023- yil yanvar-may oylari)*

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	159439,2	127,4	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	2606,1	50,8	1,6
Dehqonobod	5987,8	2,3 m.	3,8
Qamashi	4556,4	58,9	2,9
Qarshi	31172,0	68,6	19,6
Koson	12102,7	77,2	7,6
Kitob	3940,6	188,4	2,5
Mirishkor	4323,1	178,2	2,7
Muborak	1977,7	53,8	1,2
Nishon	27364,3	20,4 m.	17,2
Kasbi	39770,5	2,5 m.	24,9
Ko'kdala	3568,4	-	2,2
Chiroqchi	5520,6	4,2 m.	3,5
Shahrisabz	3654,5	120,2	2,3
Yakkabog'	2867,2	82,9	1,8
Qarshi sh.	9156,3	63,2	5,7
Shahrisabz sh.	821,5	103,2	0,5
Boshqalar	49,5	30,3	0,0

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Kasbi tumani **24,9 %** bilan **39770,5** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz shahri **0,5 %** bilan **821,5** ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-may oylarida **26,8** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **25,2** barobarga yoki **14,9** ming tonnaga ko'paydi.

















Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**36,6** %), Rossiya Federatsiyasi (**32,4** %), Qozog'iston (**17,8** %), hamda Afg'oniston (**5,5** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **20885,9** ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **125,5** % ga kupaydi va jami eksportdagi ulushi **13,1** % ni tashkil etdi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-may oylarida o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Dukkakli sabzavotlar</p> <p>3400,1 ming AQSH dollari</p> <p>8,7 ming tonna</p> <p> 2,1 m. % </p>	<p>Mevalar</p> <p>2033,1 ming AQSH dollari</p> <p>4,2 ming tonna</p> <p> 116,1 % </p>	<p>Uzum quritilgan</p> <p>976,7 ming AQSH dollari</p> <p>4,1 ming tonna</p> <p> 68,2 % </p>	<p>Pomidor</p> <p>553,4 ming AQSH dollari</p> <p>3,3 ming tonna</p> <p> 104,5 % </p>
<p>Boshqa sabzavotlar</p> <p>397,0 ming AQSH dollari</p> <p>1,9 ming tonna</p> <p> 3,7 m. % </p>	<p>Xar-xil karamlar</p> <p>231,9 ming AQSH dollari</p> <p>1,4 ming tonna</p> <p> 49,9 % </p>	<p>Xar-xil piyozlar</p> <p>225,4 ming AQSH dollari</p> <p>1,3 ming tonna</p> <p> 2,2 m. % </p>	<p>Quritilgan sitrus mevalar</p> <p>202,6 ming AQSH dollari</p> <p>1,0 ming tonna</p> <p> 3,3 m. % </p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-may oylari)

Davlatlar	Ming tonna	ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	1496,5	7636,9	36,6
 Rossiya Federatsiyasi	7309,7	6774,6	32,4
 Qozog'iston	14265,2	3708,2	17,8
 Afg'oniston	1665,2	1143,1	5,5
 Tojikiston	1271,5	492,8	2,4
 Iroq	162,5	398,3	1,9
 BAA	115,0	303,0	1,5
 Eron Islom Respublikasi	96,0	129,4	0,6
 Belarus Respublikasi	135,6	79,2	0,4
 Turkiya	96,4	62,5	0,3
 Ozarbayjon	44,0	53,4	0,3
 Boshqa davlatlar	113,8	104,6	0,3

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **36,6** % i), bu ko'rsatkich Eron Islom Respublikasi eksport hajmidan **61,0** barobar ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.







To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-may oylari yakuni bo‘yicha **95761,7 ming** AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **60,1 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **2,1 %** ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida ip kalava (**91,8 %**), tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (**6,4 %**) asosiy ulushni egallagan.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)

		2022- yil	2023- yil
Jami		93813,3	95761,7
	Ip kalava	82869,4	87938,4
	Tayyor to‘qimachilik mahsulotlari	9271,4	6130,2
	Trikotaj mato	770,0	690,0
	Gazlamalar	902,5	1003,1
	Paypoq mahsulotlari	-	-

DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI *(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari)*



		2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
	Turkiya	22556,9	25296,1	112,1
	Rossiya Federatsiyasi	5225,6	11309,7	2,2 m.
	Polsha	2588,2	5469,2	2,1 m.
	Misr	695,5	3364,1	4,8 m.
	Vetnam	576,6	2854,3	4,9 m.
	Qirg‘iz Respublikasi	747,8	2209,0	2,9 m.
	XXR	7330,7	1421,7	19,4
	Marokash	-	1355,3	-
	Eron Respublikasi	2501,6	1243,0	49,7
	Tojikiston	10,3	869,9	84,4 m.
	Moldova Respublikasi	799,9	675,5	84,4
	Belgiya	-	559,8	-
	Bangladesh	-	551,5	-
	Pokiston	1803,5	541,6	30,0
	Boshqa davlatlar	48976,7	38041,0	77,7




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida viloyatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Turkiya (**26,4 % – 25296,1** ming AQSH dollari) va Rossiya Federatsiyasi (**11,8 % – 11309,7** ming AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **1842,8** ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **14,6** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi boshqa xizmatlar (**50,0** %), transport (**31,2** %), boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar (**17,6** %) va safarlar (turizm) (**1,2** %) hissasiga to'g'ri kelgan.




QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-may oylarida import hajmi **80581,4** ming AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **30,5 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, sanoat tovarlari (**54,1 %**), mashinalar va transport asbob- uskunalari (**12,6 %**) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**11,2 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35333,6** ming AQSH dollariga kamaydi va **80581,4** ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **553,0** ming AQSH dollariga yetdi.




QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yillar kesimida yanvar-may oylari holati)*

XSST tarkibi	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	115915,0	80581,4	126,3	69,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	10043,2	9055,4	103,4	90,2	8,6	11,2
Ichimliklar va tamaki	-	20,4	-	-	-	-
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyolar	688,2	546,2	57,8	79,4	0,6	0,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3356,1	3558,7	166,3	106,0	2,9	4,4
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	516,5	35,9	155,9	7,0	0,4	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	10056,3	9030,9	121,3	89,8	8,7	11,2
Sanoat tovarlari	75199,0	43566,8	124,2	57,9	64,9	54,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	11948,9	10113,3	181,9	84,6	10,3	12,6
Turli xil tayyor buyumlar	4029,3	4009,6	128,4	99,5	3,5	5,0
Boshqa tovarlar	70,4	91,2	8,0 m.	129,5	0,1	0,1
Xizmatlar	7,1	553,0	-	77,9 m.	-	0,7

2023- yil yanvar-may oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **27,2 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **19,4 %** ga kamaydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2023- yil yanvar-may oylarida Qashqadaryo viloyati **50** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Latviya, Koreya Respublikasi va Qirg'iz Respublikasi) jami importning **76,0 %** ni tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may oylari % da)





QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI

(yillar kesimida yanvar-may oylari holati)

Davlatlar	ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
XXR	40023,3	24727,8	169,3	61,8	1	1
Turkiya	17271,7	9060,4	60,4	52,5	2	2
Qozog'iston	7582,2	8995,5	75,2	118,6	4	3
Rossiya Federatsiyasi	11914,1	8608,1	114,8	72,3	3	4
Latviya	54,9	5435,8	7,1	99,0 m.	20	5
Germaniya	7354,5	3622,5	2,8 m.	49,3	5	6
Litva	217,3	2465,5	143,4	11,3 m.	18	7
Qirg'iz Respublikasi	2709,6	2267,7	9,7 m.	83,7	8	8
Koreya Respublikasi	1581,7	2165,2	98,8	136,9	10	9
Yaponiya	3386,2	1321,6	-	39,0	6	10
Italiya	1478,1	1305,9	121,7	88,3	11	11
Belarus Respublikasi	236,9	1118,6	59,9	4,7 m.	17	12
Amerika Qo'shma Shtatlari	491,8	1057,9	2,6 m.	2,1 m.	14	13
Eron Islom Respublikasi	3008,6	1053,2	196,9	35,0	7	14
Pokiston	184,8	966,2	69,4	5,2 m.	19	15
Hindiston	2320,2	875,4	9,0 m.	37,7	9	16
Niderlandiya	1065,6	772,1	2,7 m.	72,5	13	17
Kanada	491,0	725,0	38,6	147,7	15	18
Polsha	1146,5	622,8	5,3 m.	54,3	12	19
Fransiya	395,4	549,0	17,4	138,8	16	20



QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-may oylari)

	Hajm ming AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	80581,4	69,5	100,0
<i>hududlar:</i>			
G'uzor	8362,2	142,6	10,4
Dehqonobod	2705,3	103,3	3,4
Qamashi	1947,5	127,3	2,4
Qarshi	6273,4	29,4	7,8
Koson	194,2	9,3	1,5
Kitob	8966,7	36,9	11,1
Mirishkor	1900,0	46,0	2,4
Muborak	667,6	79,0	0,8
Nishon	7990,2	6,2 m.	9,9
Kasbi	6780,4	66,9	8,4
Ko'kdala	185,6	-	0,2
Chiroqchi	526,0	22,1	0,7
Shahrisabz	162,8	10,7	0,2
Yakkabog'	8473,2	2,9 m.	10,5
Qarshi sh.	22824,3	111,3	28,3
Shahrisabz sh.	1622,0	44,5	2,0
Boshqalar	-	-	-

Eng yuqori hajm,
ming AQSH dollari



Qarshi sh. 22824,3

Kitob 8966,7

Yakkabog' 8473,2

Eng quyi hajm,
ming AQSH dollari



Shahrisabz 162,8

Ko'kdala 185,6

Koson 194,2

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Qarshi shahri **28,3** % bilan **22824,3** ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Shahrisabz tumani **0,2** % bilan **162,8** ming AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Qashqadaryo investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-may oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalar hajmi **10113,4** ming AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **15,4 %** ga kamaydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **12,5 %** ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may oylari)




2023- yil yanvar-may oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1835,5** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR – **6641,6** ming AQSH dollari (**65,7 %**), Belarus Respublikasi - **468,2** ming AQSH dollari (**4,6 %**) va Turkiya – **506,1** ming AQSH dollari (**5,0 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **43566,8** ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **42,1** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **54,1** % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)

13624,8 ming
AQSH doll.
ulushi – 31,3 %

8144,3 ming
AQSH doll.
ulushi – 18,7 %

4319,4 ming
AQSH doll.
ulushi – 9,9 %



XXR



Turkiya



Rossiya
Federasiyasi

5012,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 11,5 %

1688,1 ming
AQSH doll.
ulushi – 3,9 %



Latviya



Koreya
Respublikasi



2023- yil yanvar-may oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **31632,1** ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR- **13624,8** ming AQSH dollari (**31,3** %), Turkiya - **8144,3** ming AQSH dollari (**18,7** %) va Rossiya Federasiyasi – **4319,4** ming AQSH dollari (**9,9** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2023- yil yanvar-may oylari ulushi, % da)

553,0



Safarlar (turizm) **Transport xizmatlari** **Telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari** **Boshqa tadbirkorlik bilan bog'liq xizmatlar** **Boshqa xizmatlar**

2023- yilning yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **553,0** ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining **0,7** % ini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (**100,0** %), ga tegishli bo'ldi.